

TABIY VA ANIQ FANLARNI O'QITISHDA XORIJ MAMLAKATLARININGNING PEDAGOGIK METODLARDAN FOYDALANISH

“University of economics and pedagogy” NOTM

Assistent o'qituvchisi

Toxirova Moxichexrabonu Xoshimjon qizi

“University of economics and pedagogy” NOTM talabasi

Shamsiddinova Gulsaraxon Rahimberdi qizi

Annotatsiya. Maqolada xorijiy davlatlar; Buyuk Britaniya, Finlandiya, Janubiy Koreyaning ta'lim tizimi, tabiiy va aniq fanlar o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalar haqida ma'lumotlar berilgan. Xorijiy davlatlarning ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari, O'zbekiston ta'lim tizimi bilan o'xshash jihatlari, afzallik va kamchiliklari ko'rsatilgan. Tabiiy va aniq fanlarni o'qitishning xorij tajribalari, afzallik tomonlarini o'rganish, ularni metodologik jihatdan takomillashtirish hamda O'zbekiston ta'lim tizimiga joriy qilish haqida ma'lumot va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Buyuk Britaniya ta'lim tizimi, Finlandiya ta'lim tizimi, Janubiy Koreyaning ta'lim tizimi, davlat maktablari, xususiy maktab.

Mamlakatimizda har bir sohada jadal rivojlanishi natijasida, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, o'qitishning zamonaviy shakl va pedagogik texnologiyalarini joriy etish, o'qituvchilarni malakasini oshirish, yangi darsliklar, o'quv adabiyotlar tayyorlash bo'yicha qator ishlar bajarildi. O'zbekiston ta'lim tizimini takomillashtirish uchun Buyuk Britaniya, Finlandiya, Germaniya, Italiya, Niderlandiya, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya va shu kabi mamlakatlarning etakchi ilmiy-ta'lim muassasalari o'qitish tizimini o'rganish va afzallik tomonlarini tadbiq etish kerak bo'ladi

O'zbekiston uchun turli sohalardagi o'z bilim va ko'nikmalarini mustaqil takomillashtirishga, zarur holda yangi bilimlar va kasblarni o'zlashtirishga qodir

bo'lgan yoshlar etishib chiqishi muhimroqdir. Qilingan adabiyotlar tahlili chet el pedagogik tajribasini, xorijiy ta'limini qiyosiy o'rganish o'z mamlakatimizdagi ta'lim tizimlarini takomillashtirish va yanada oqilona ta'lim tizimlarini yaratish uchun andoza bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro miqyosda tabiiy va aniq fanlarni o'qitish sifatini yaxshilash, samaradorlikni oshirish, milliy ta'lim tizimiga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, integratsiyalash, o'quvchilarning aqliy salohiyati, ijodiy, kreativ fikrlash, izlanuvchanlik, yaratuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish, zamonaviy metodik ta'minotni yaratishga qaratilgan samarali tadqiqotlar olib borish.

Buyuk Britaniyada talim tizimi. Buyuk Britaniyadagi ta'lim muassasalari an'anaviy ravishda jahon reytingining birinchi pog'onasini egallaydi. Buyuk Britaniya ta'lim tizimi talabalarning tanqidiy va tahliliy fikrlashini rivojlantirish, intizomni shakllantirish va bitiruvchilarni zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli kelajakka tayyorlash uchun mo'ljallangan.

Britaniyadada kimyo fanini o'qitishda atrof- muhitda sodir bo'ladigan hodisalar orqali tushuntirish hamda ma'lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish; tadqiqotlarni baholash va rivojlantirish uchun amaliy kompetensiyalardan foydalanishadi. Britaniyada ta'lim asosan fanni chuqur o'rganishga, olingan bilimlarni kundalik hayotda qo'llay olishga, tadqiqot ishlari olib borishga yo'naltirilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki Britaniyada tabiiy va aniq fanlarni o'qitish spiral shaklda bo'lib, sodadan murakkabga qarab o'zgarib boradi. 7 sinfda o'tilgan mavzular 8, 9, 10, 11 – sinflarda ham o'tiladi. Mavzular mazmun jihatdan murakkablashib boradi. O'quvchining yoshi, qabul qilish darajasi inobatga olingan holda mavzular yoritilib boriladi. Spiral usulda kimyoni o'qitilishining afzalliklari quyidagilardan iborat.

1. O'quvchi fanga atrof muhitni o'rganish orqali kirib keladi.
2. Mavzular soddalashtirilgan holda berilib boriladi.
3. Murakkab mavzularga oldindan ma'lumotlar berilib boriladi.
4. Har bir darsda mavzuga oid kichik laboratoriya ishlari namoish etiladi.
5. Har bir bobdan keyin kichik loyiha ishlari berib boriladi.

Janubiy koreya talim tizimi. Korreyada tabiiy va aniq fanlarni o'qitishda atrof- muhitda sodir bo'ladigan hodisalar orqali tushuntirish hamda ma'lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish; tadqiqotlarni baholash va rivojlantirish uchun amaliy kompetensiyalardan foydalanishadi. Janubiy Koreyada ta'lim asosan taqqoslashga moslashtirilgan. O'quvchilarni internetdan foydalanishga o'rgatiladi yani Googl, sunniy intellekt kabilar. Mustaqil tadqiqot qilish, ijodkorlik, yaratgan narsalarini kundalik xayotda qo'llay olish ko'nikmalari rivojlantiriladi. Har bir darsda o'rganilgan ma'lumotlarni qayerda qo'llay olish mumkin va iqtisodiy jixatdan

1008

qanday foyda olish mumkin degan savol qo'yiladi. Darslar kasbga yo'naltirilgan holda olib boriladi. O'quvchilarga mustaqil ishlash uchun loyiha ishlar beriladi. Loyiha ishini individual yoki kichik guruhlarda bajariladi. Loyiha ishini bajarishda muammo o'rta tashlanadi, muammoni hal qilish uchun o'quvchilar ma'lumot yig'ishadi va o'z qo'llari bilan bajarishadi. O'quvchilarga kundalik hayotda ishlatiladigan buyumlarni dizayni, materialini o'zgartirishlari taklifi beriladi. Bu usul kreativ fikrlash, ijodgorlik, izlanuvchanlik, yaratuvchanlikni shakllantiradi.

Finlandiya talim tizimi. Finlyandiya mehnat qonunchiligida qabul qilingan o'qituvchilik kasbining o'ziga xos xususiyatlari tufayli o'qituvchilar o'quvchilarni

kamsitishi mumkin emas. Har bir bola uchun individual ta'lim va rivojlanish rejasi tuziladi. Individuallashtirish qo'llanilgan darsliklar, mashqlar, sinf va uy vazifalari soni va ularga ajratilgan vaqt, shuningdek o'qitiladigan material belgilanadi.

Bir sinfdagi dars davomida bolalar turli qiyinchilik darajasidagi mashqlarni bajaradilar. Va ular shaxsiy darajaga qarab baholanadi. Agar siz dastlabki qiyinchilik mashqlarini a'lo darajada bajargan bo'lsangiz, sizga keying darsda yuqori darajali vazifa berishadi, agar bajara olmasangiz yana oddiy topshiriq olasiz. Agar darsda mavzu to'liq o'zlashtirilmagan bo'lsa, maxsus yordamchi o'qituvchilar darsdan keyin o'quvchilar bilan shug'ullanadi. Finlar: "Biz hayotga yoki imtihonlarga tayyorlanamiz", deyishadi. Biz birinchisini tanlaymiz." Shuning uchun Finlyandiya maktablarida imtihonlar o'tkazilmaydi. Tabiiy va aniq fanlardan nazorat va oraliq testlar o'qituvchining ixtiyorida. Umumta'lim maktabining oxirida faqat bitta majburiy standart sinov bor, o'qituvchilar esa uning natijalari haqida qayg'urmaydilar, buning uchun hech kim oldida javob bermaydilar, bolalar esa maxsus tayyorgarlik ko'rmaydilar. O'qituvchilar maktabda ularga hayotda nima kerak bo'lishini o'rgatishga harakat qilishadi.

Finlandiya ta'lim tizimining yutug' tomonlari ko'p, masalan: o'quvchilarning darsda erkinligi, fanlarni tanlay olishi, sifatni mustahkamlashga alohida e'tibor berilishi; o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida erkin munosabat o'rnatilganligi; o'quvchilar o'rtasida farq bo'lmasligi uchun baholashning o'zgacha usuli borligi; ijodiy muhit yaratilganligi; javob bera olmagan o'quvchilarni ham o'qituvchi xushmuomalalik bilan to'g'ri yo'naltira olishi; ta'lim maqsadli individuallashtirishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xasanova Nilufar Xaqnazarovna, Nizamova Saida Adilovna Kimyo fanini o'qitishda pedagogik hamkorlik finlandiya va o'zbekiston misolida // SAI. 2023. №Special Issue 12. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kimyo-faninioqitishda-pedagogik-hamkorlik-finlandiya-va-o-zbekiston-misolida>. 1009
2. Xasanova N. . (2024). Singapur davlatining ta'lim tizimidagi yutuqlari. Молодые ученые, 2(3), 41–43. ИЗВЛЕЧЕНО ОТ <https://inacademy.uz/index.php/yo/article/view/26709>
3. Nizamova S.A., Khasanova N.Kh. Determination and analysis of the improvement of educational efficiency in the teaching of chemistry based on a qualitative approach // EESJ. 2023. №3-2 (88). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/determination-and-analysis-of-theimprovement-of-educational-efficiency-in-the-teaching-of-chemistry-based-ona-qualitative>.
4. Хасанова, Н. (2024). Использование проектной работы в преподавании химии, развитие научно-исследовательских навыков у молодежи. В

theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences (Т. 3, Выпуск 4, сс. 89–91). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10704557>

5. Abduvalieva, O. D. (2023). Lotin tilisiz tibbiyotga yo‘l yo‘q. *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING*, 3(2).

6. Мейнандер, Х. История Финляндии / Х. Мейнандер. – М. : Весь мир. – 2008.

7. Сайт Управления образования Финляндии

http://www.hel.fi/wps/portal/Opetusvirasto/?WCM_GLOBAL_CONTEXT=/Opetusvirasto/etusivu